

KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA MUHITINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Numonjonova Nargiza Ashuraliyevna
Andijon davlat texnika instituti assistenti

Mamlakatda kichik biznesni rivojlantirish hamda barqaror o'sishni ta'minlashdagi eng asosiy omillardan biri bu investitsiyalardir. So'nggi yillarda, kichik biznes sohasida investitsiya faoliyatini kengaytirish, investitsiya resurslari manbasini diversifikatsiyalash, muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu kabi vazifalarning samarali amalga oshirilishi, kichik biznes korxonalarini moliyalashtirish, jumladan, investitsion kreditlash hamda investitsiya dasturlari samaradorligi bilan bog'liq. Bu esa, kichik biznes subyektlarining investitsion muhitini yanada takomillashtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlab o'tganidek, "Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz"¹⁰⁵. Shu nuqtai nazardan, kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi, ishlab chiqarish sektorlarini innovatsion texnika va texnologiyalar orqali kengaytirishni, sohaga investitsiyalar keng joriy etishni va shu bilan birga iste'mol bozorini tovar va xizmatlar bilan to'ldirishni taqazo etadi. Iqtisodiyotning real sektor tarmoqlariga, jumladan, kichik biznesga investitsiyalar oqimini jalb qilish iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichini boshlab beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Demak, investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi, uning taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi, aholini ish bilan ta'minlovchi, ularning daromad manbaini shakllanishiga hissa qo'shuvchi kuch ekan, barcha imkoniyatlarni ishga solib iqtisodiyotga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish lozim.

Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda amalga oshirilayotgan bozor munosabatlari - mulkning ko'p shaklliligi, tadbirkorlikni rivojlanishi kabi jarayonlar mamlakatga chet el yuridik va jismoniy shaxslarning bemalol kirib kelishiga yo'l ochmoqda va bir qancha davlatlar bilan iqtisodiyotning barcha sohalarida hamkorlik ishlari rivojlanmoqda. O'zbekistonda 2022-yildan buyon o'tkazib kelinayotgan Xalqaro investitsiya forumi mamlakatimizga xorijiy investorlar oqimini kengaytirib bormoqda. 2024-yilning 2-3-may kunlari bo'lib o'tgan O'zbekiston III-Xalqaro investitsiya forumi, 93 mamlakatdan 2,5 mingdan ortiq delegatni jamlagan bo'lib, forum global muloqot va investitsiyaviy sohadagi ilg'or tajriba almashish maydoniga aylandi¹⁰⁶. 2025- yilning 10-12-iyun kunlari bo'lib o'tgan IV Toshkent xalqaro investitsiya forumida umumiy qiymati 30,5 milliard AQSH dollariga teng investitsiya va savdo bitimlari imzolandi. Unda 7,5 mingdan ortiq delegat, jumladan, 100 ga yaqin davlatdan qariyb 3 ming nafar

¹⁰⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018 yil.

¹⁰⁶ <https://aniq.uz/yangiliklar/2024-yilda-o'tkazilgan-III-Toshkent-xalqaro-investitsiya-forumi-global-muloqot-va-yirik-investorlar-maydoni-bo'ldi>

xorijiy investorlar ishtirok etdi. Bu kabi keng qamrovli ishtirok O'zbekistonga bo'lgan ishonch va qiziqishning ortib borayotganiga yaqqol dalildir¹⁰⁷. Ushbu xalqaro investitsiya forumi nafaqat O'zbekistonda, balki Markaziy Osiyo davlatlarida ham kuzatilayotgan yuqori darajadagi iqtisodiy o'sishni namoyon etuvchi nufuzli xalqaro maydondir. U jahon investorlari uchun mamlakatimizdagi mavjud investitsion shart-sharoitlar bilan ham yaqindan tanishish imkoniyatini beradi.

Mamlakatimizda qulay investitsiya muhitini yaratish, xususiy mulk egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish, xususiy sektorni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, davlat aktivlarini shaffof holda xususiylashtirish borasida ham keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimizda investitsiya muhiti tubdan yaxshilanmoqda. Jahon banking 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, O'zbekiston investitsiya jozibadorligi bo'yicha mintaqadagi eng yuqori sur'atlarda o'sib borayotgan davlatlar qatoriga kiritildi¹⁰⁸.

Shu o'rinda, rivojlangan davlatlar amaliyotiga nazar tashlasak, masalan, AQSh, Kanada, Gepmaniya, Yaponiya, Frantsiya va Angliya mamlakatlarida kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari mavjud. Ushbu mamlakatlarda innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishni boshlayotgan kichik innovatsion biznes subyektlari harajatlarining 20-50 foizi davlat tomonidan to'liq qoplab beriladi¹⁰⁹.

Yaponiyada esa, umumiy kapitalda bankka nisbatan korxonalar ulushi past bo'lgan hollarda, korxonalar boshqaruvida sarmoya kiritgan bank bevosita qatnashadi va asosiy ustunlikka ega bo'ladi. Ya'ni, bank korxonani qayta tashkil etishda ham kreditor ham korxonaning kapital egasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu Yaponiyada korxonalar mablag'laridan samarasiz foydalanishning oldini olishga yordam beradi, deb hisoblanadi¹¹⁰. Bundan ko'rinib turibdiki xorijiy davlatlarda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda investitsiyalar samaradorligiga katta e'tibor qaratiladi. Shu sababli, milliy iqtisodiyotda, rivojlangan davlatlar investitsiya siyosatining maqbul tomonlaridan andoza olish o'rinlidir.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotga ichki va tashqi investitsiyalarning jalb qilinishi bevosita investitsiya muhitiga bog'liq. Uning jozibadorligini oshirilishi xorijiy investitsiyalar oqimining ortishiga sabab bo'ladi. Buning uchun esa, eng avvalo, to'la to'kis iqtisodiy erkin jamiyat barpo qilishimiz maqsadga muvofiqdir. Chunki, salohiyatli investorlar tomonidan biror milliy iqtisodiyotga sarmoya

¹⁰⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning to'rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi. 10.06.2025 yil.

¹⁰⁸ <https://uza.uz/posts/731514>

¹⁰⁹ Ergashev I.I. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini investitsiyalashning iqtisodiy samaradorligi" mavzusida falcafa doktopi (PhD) ilmiy dapajacini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. 2022. 49-bet.

¹¹⁰ Qosimov A.A, Yuldashev H.T, Qurbonov U.F. "Iqtisodiy rivojlanishga investitsion muhit ta'siri va unga bog'liq omillar tahlili" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2021, 98-bet

yo'naltirishga doir investitsion qaror qabul qilishda albatta ushbu mamlakatning investitsiya muhiti va uning jozibadorligi muhim ahamiyat kasb etadi. U bevosita o'sha mamlakatning iqtisodiy erkinlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Iqtisodiy erkin jamiyatda esa odamlar o'zlari xohlagan tarzda ishlash, ishlab chiqarish, iste'mol qilish va sarmoya kiritish huquqiga egadir.

MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA PUL BOZORI INSTRUMENTLARINING ROLI VA AHAMIYATI

Omandavlatov Jasur Alisher o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Zamonaviy iqtisodiyotda pul bozorining barqaror faoliyat ko'rsatishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va tadbirkorlik kapitalini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Arzon va moslashuvchan moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish korxonalariga va moliya institutlariga yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, to'lov qobiliyatini saqlash orqali global bozorlarda o'z raqobatbardoshligini mustahkamlash imkoniyatini yaratadi. Xususan mamlakatimizda "barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun mamlakatning strategik maqsadlariga erishishda ishonchli vosita sifatida davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish talab etilmoqda"¹¹¹. Vaholanki moliya bozori tarkibiga kiruvchi pul bozori mamlakat iqtisodiy tizimning bir qismi sifatida eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu sababdan qisqa muddatli moliyaviy vositalarning likvidlik va naqd pulni diversifikatsiya qilish kabi o'ziga xos xususiyatlaridan samarali foydalanish moliya tizimini rivojlantirish va investitsion jozibadorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida qayd etilgan ijobiy jihatlarga erishishni samarali tashkil etishda pul bozori instrumentlarining iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli va ahamiyatini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy pul bozori turli xil moliyaviy vositalar orqali faoliyat yuritadi. Shu sababli, zamonaviy moliya tizimining "yuragi" hisoblangan va pul-kredit siyosati samaradorligini belgilab beruvchi quyidagi beshta asosiy moliyaviy instrumentga batafsil to'xtalib o'tish joiz (1-rasm).

Quyidagi instrumentlar moliya tizimini rivojlantirishda va investitsion muhitni shakllantirishda pul bozorining beshta asosiy vositasi hisoblanadi. Shulardan, bank tizimining barqaror rivojlanishi va to'lov uzliksizligini saqlashda ishlatiladigan banklararo kreditlar (overnight) va qayta sotib olish sharti bilan tuzilgan bitimlar evaziga qisqa muddatli pul mablag'larini jalb qilish vositasi bo'lgan repo bitimlari moliya tizimida likvidlikni tezkor boshqarish uchun xizmat

¹¹¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2025 — 2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" VM-210-son Qarori, 08.04.2025. <https://lex.uz/docs/-7469803>